

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI RESPUBLIKA
SUD EKSPERTIZA MARKAZI**



**Audio yozuvlardagi ovozlarni haqiqiylikni aniqlashda
e'tibor qilinadigan jihatlar**
(fuqarolar uchun qo'llanma)



TOSHKENT 2025

Muallif:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining sud-fonografiya laboratoriyasining mudiri N.B.Abrarova

Mazkur amaliy qo'llanma fuqarolarga sud-fonografiya laboratoriya ekspertizasi yo'nalishida sud-ekspertlari tomonidan tavsiyalar va tushunchalar berish maqsadida ishlab chiqilgan.

Mundarija

Kirish	4
1. Ovoz va og‘zaki nutqni lingvistik tahlili	5
2. Og‘zaki nutqning umumiy belgilarini ekspertiza tadqiqotlari	10
3. Og‘zaki nutq belgilari.....	12
4. Eshitilayotgan og‘zaki nutqning xususiy fonetik belgilarini tasniflanishi.....	13
5. Og‘zaki nutq (ON)ni bilish (egallaganlik) darajasi.....	13
6. Grammatik ko‘nikmalarning rivojlanganlik darajasi.....	14
7. Stilistik ko‘nikmalarning rivojlanganlik darajasi.....	14
8. Til vositalaridan foydalanish (funksional stil) ko‘nikmalarining o‘ziga xosligi..	15
9. So‘z boyligi va leksik ko‘nikmalari	16
10. Tadqiqot natijalarini baholash – ekspertizaning muhim bosqichi	16
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	19

Kirish

Hammamizga ma'lumki, fan, texnika va raqamli texnologiyalarini taraqqiyotining ilg'or yutuqlari sud ekspertlarining xulosalarini ilmiy asoslanganlik, xolislik va tekshirish oson bo'lganligi jihatidan bahs talab qilmaydigan ustunlikka ega bo'lib kelmoqda. Sud ekspertizalarining ana shunday turlaridan biri, sud-fonografiya ekspertizasi hisoblanadi.

Bu turdagi ekspertizalarni o'tkazish zarurati odatda, og'zaki nutqli audio fonogramma jinoyatlarni tergov qilish va ochishda muhim dalil hisoblangan hollarda yuzaga keladi. Juda ko'p hollarda fonografiya ekspertizalar poraxo'rlik, ta'magirlik va boshqa o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha ishlarda tayinlanadi.

Sud-fonografiya ekspertiza – fonogrammada yozilgan va isbotlov ahamitiyaga ega bo'lgan axborotni ishonchiligi va mansubligi aniqlash bo'yicha qonunda belgilangan protsessual harakatlarning biri hisoblanadi.

Fonografiya ekspertizaning predmeti – muhandislik-texnik, fizikaviy-matematik, axborot, lingvistik texnologiyalar sohasida maxsus kompleks bilimlar asosida, fonogrammalar bo'yicha aniqlanadigan holat (fakt) va sharoitlardir.

Fonografiya ekspertiza so'zlovchi shaxsni fonogrammada yozilgan ovozi va nutqi belgilari bo'yicha aniqlash; ovoz yozish jarayonida yoki bu jarayon tugagandan so'ng, fonogrammadagi o'chirish, nusxa ko'chirish, montaj yoki fonogrammaga kiritilgan boshqa o'zgarishlar belgilarini aniqlash; ovoz yozish sharoitlari, holatlari, vosita va uslublarni aniqlash hamda isbotlov ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa faktlarni aniqlash maqsadlarida o'tkaziladi.

Sud-fonografiya ekspertiza quyidagi vazifalarni bajarish maqsadida tayinlanadi:

- shaxsni ovozi va nutqi bo'yicha identifikatsiya va diagnostika qilish;
- ovoz yozish jarayonida yoki bu jarayon tugagandan so'ng, fonogrammaga kiritilgan montaj yoki boshqa o'zgarishlar belgilarini aniqlash;
- ovoz yozish sharoitlari, holatlari, vosita va metodlarini, shuningdek fonogrammalar bo'yicha isbotlov ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa faktlarni aniqlash.

Fonografiya ekspertiza predmetini tashkil qilgan vazifalar identifikatsion va diagnostik xususiyatga ega bo'ladi.

Sud-fonografiya ekspertizasining o'ziga xos xususiyati – bu turdagi ekspertizaning juda ko'plab vazifalarini bajarish uchun ekspert fan va texnikaning turli sohalari (lingvistika va akustika, matematika, radiotexnika va h.k.) bo'yicha keng va chuqur bilimlarga ega bo'lishi talab etilishidadir.

Ta'kidlash joizki, nutqni fonografiya tadqiqotlari keng ko'lamdagi maxsus bilimlar va ma'lumotlar bazasi, moddiy-texnik ta'minot va maxsus sharoitlarni talab

etadi. Undan tashqari, lingvistik tadqiqotlarni o'tkazuvchi ekspert, fonogrammada yozilgan suhbat olib borilayotgan tilni to'liq bilishi zarur. Ta'kidlash joizki, zarur holatlarda tegishli tildagi filolog-mutaxassisni ekspert sifatida (tergov yoki sud tomonidan) jalb qilib, ekspertiza tadqiqotlari amalga oshirilishi mumkin.

Sud-fonografiya ekspertiza o'zining tabiatiga ko'ra kompleks ekspertiza hisoblanadi, ya'ni, aynan bir turdagi ashyoviy dalillarga nisbatan, tegishli turli bilimlarga ega bo'lgan bir necha mutaxassislar tomondan o'tkaziladi.

Sud-fonografiya ekspertizalarini o'tkazuvchi mutaxassislarni shartli ravishda quyidagilarga ajratish mumkin:

- ovoz va nutqning auditiv va lingvistik tahlillarini amalga oshiruvchi - «ekspert-lingvist»;

- maxsus dasturlar va asbob-uskunalar (instrumentlar) yordamida ovozni identifikatsion tadqiqotlarini o'tkazuvchi - «ekspert-dasturchi»;

- elektroakustik montaj belgilari mavjudligi/mavjud emasligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlarini o'tkazuvchi - «ekspert-elektroakustik».

Og'zaki nutqning kriminalistik tadqiqotlarining asosiy yo'nalishining vazifasi - bu shaxsni fonogramma bo'yicha identifikatsiya qilish, ya'ni audio va videoyozuvlardagi ovozlarni (nutqlarni) haqiqiylikni aniqlashdan iborat.

Sud-fonografiya tadqiqotlari jarayonida audio yozuvlardagi ovozlarni haqiqiylikni aniqlashda e'tibor qilinadigan jihatlarni ko'rib chiqaylik.

Ovoz va og'zaki nutqni lingvistik tahlili

Ekspertlar bajaririshi kerak bo'lgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan asosiy uslublardan - biri nutqning lingvistik tahlili hisoblanadi.

Lingvistik tahlilning maqsadi – so'zlovchi shaxsining individualligi, tilga oid va intellektual ko'nikmalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan hamda fikrlarni og'zaki bayon qilish va tovushlar artikulyatsiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan iborat bo'lgan og'zaki nutq belgilarini ajratib olish va baholashdan iborat.

Insonning og'zaki nutqi - artikulyatsion apparatining jismoniy xususiyatlari va shaxsning psixofiziologik xususiyatlarining hosilasi hisoblanadi. Shuning uchun qo'yilgan savollarga bog'liq ravishda, og'zaki matnning lingvistik tahlili yordamida odamning turlicha tasnifini aniqlash imkoni mavjud.

Identifikatsion tadqiqotlarda lingvistik tahlil tadqiqotlarning dastlabki, alohida va taqqoslash bosqichlarida qo'llaniladi. Dastlabki tadqiqot bosqichida lingvistik tahlilning asosiy vazifasi noma'lum shaxsning ovozi va nutqi yozuvlari va taqqoslash uchun namunalardan o'zaro solishtirilishi mumkin bo'lgan og'zaki nutq materiallarini ajratib (tanlab) olish hisoblanadi.

Lingvistik tahlilning ushbu bosqichdagi yana bir vazifasi – mazkur og‘zaki nutq sharoitlarida og‘zaki matnning stilistik mansubligi: og‘zaki matnning shakli (og‘zaki nutq spontan, tayyorlangan, o‘qish shaklida va h.k.shaklda bo‘lishi mumkin); suhbat ishtirokchilarining soni (dialog, polilog, monolog); so‘zlashuvchilarning ruhiy (emotsional) holati va o‘zaro munosabati (rasmiy, do‘stona, dushmanlarcha h.k.)ni aniqlash hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, nutq vujudga kelishida so‘zlovchi muloqot vaziyatiga emas, balki ruhshunoslar hisoblaganidek, ushbu vaziyatning ruhiy obraziga e’tibor beradi, vaziyatning ruhiy obrazida esa bir qator uzluksiz jismoniy va fiziologik jarayonlar yordamida og‘zaki nutqning aks etish natijalari vujudga keladi va shakllanadi.

Og‘zaki muloqotga shaxsning ta’siri, odam tomonidan o‘zining tajribalariga asoslangan holda, og‘zaki muloqotning tegishli usulini beixtiyor yoki ongli ravishda tanlab olishda namoyon bo‘ladi. So‘zlovchiga odat bo‘lib qolgan juda ko‘p hollarda, muloqot avtomatik tarzda, oldindan tayyor bo‘lgan formulalar asosida kechadi.

Muloqotni rejalashtirishda odam, beixtiyor o‘zi nimalarni gapirishini tasavvur qiladi, so‘ng esa (bu ham beixtiyor) muloqot jarayonida foydalanadigan aniq til vositalarini tanlab oladi.

Lingvistik tahlilni qo‘llash fonografiya ekspertizaning dastlabki bosqichida ham zarurdir, kelgusida esa asabob-uskunali (instrumental) ni qo‘llashda ham zarur bo‘ladi. Bunda quyidagi bosqichlar mavjud bo‘ladi:

1) auditiv yo‘l bilan yaxshi sifatli og‘zaqi nutq lavhalarini ajratib olish (minimal buzilishga ega, shovqin darajasi foydali signal shovqinidan past bo‘lgan hamda aniq eshitiladigan signallar, bir nechta so‘zlovchi mavjud bo‘lganda esa alohida, bir-biriga qo‘shilib ketmagan og‘zaki nutq lavhalari);

2) ekspertlar oldiga qo‘yilgan vazifalar, qo‘llaniladigan matematik ta’minot va algoritmlarga bog‘liq ravishda, og‘zaki nutqni tarkibiy lavhalar (ibora, sintagma, so‘z, tovush, bo‘g‘in)ga segmentatsiya qilish (ajratish);

3) aniq bir og‘zaki nutq vaziyatiga nisbatan, segmentlarga ajratilgan og‘zaki nutq lavhalarini lingvistik belgilar atamaları yordamida ta’riflash, ularni odamning til qobiliyati xususiyatlari, zamonaviy adabiy til normalarini bilish, stilistik vositalarni qo‘llash ko‘nikmalari bo‘yicha baholash.

Shaxsni, noma’lum shaxsning og‘zaki nutqi va taqqoslash uchun taqdim etilgan namunalar bo‘yicha identifiatsiya qilishdagi alohida tadqiqotlar bosqichida, lingvistik belgilar atamaları yordamida til birliklarini og‘zaki nutqni bajarish xususiyatlari, ya’ni og‘zaki nutqning quyidagi lavhalari: ibora, og‘zaki matn, so‘z, so‘z birikmasi va alohida tovush kabilar ajratib olinadi va ta’riflanadi.

Og‘zaki matn quyidagi belgilarni ifodalaydi: kompozitsiya (bayon etishning ketma-ketligi), fikrlarni isbotlash usuli, umumiy va shaxsiy g‘oyalarni rivojlanish xususiyati, o‘z so‘zidan tonish yoki qaytish, izohlar va bayon etish mantiqiylikning

buzilishlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi, muayyan holatlarga urg'u berish usuli, muhokama predmetiga nisbatan so'zlovchining munosabatini ifodalash usuli, tilning ekspressiv usullarini qo'llash qobiliyati va h.k.lar. Og'zaki matnni tahlili asosida, umumiy tarzda, tekshirilayotgan odamning tilga oid qobiliyati bo'yicha umumiy ta'asurotlar hosil bo'ladi.

Ibora - sintaksis tuzilish usuli, odamni sintaksis vositalardan foydalanish qobiliyati bilan ifodalanadi, odamning u yoki bu konstruksiyalarni bilish va tanlash qobiliyatini aks etadi.

Iboralar kichikroq birliklar – so'zlardan tashkil topadi. So'z tilning leksik boyligini tashkil qiladi. So'z darajasida muayyan so'zlarni talaffuz qilishning o'ziga xosligi, so'z mazmunini o'zgartirish yoki buzish, turli soha, stil, maxsus atamalar, dialektizm (shevaga xos so'zlar), jargonlarga oid so'zlarni qo'llash, cheklangan doiradagi (masalan, oilaviy) so'zlarni qo'llash, sinonim, antonim, paronim (aytilishi o'xshash, ammo mazmuni turlicha so'zlar) va h.k.ni qo'llashni aks etiruvchi xususiyatlar o'rganiladi.

Tilning so'z boyligi – bu uning eng harakatchan (o'zgaruvchan) darajasidir. Ayrim so'zlar eskiradi va talaffuzdan chiqib ketadi, boshqalari esa yangi tushunchalar va voqelikdagi yangi hodisalarni aks ettirib kirib keladi. Muayyan bir shaxsning so'z boyligi turli so'zlarni talaffuz qilishi bo'yicha turlicha bo'ladi. Ayrim so'zlar boshqalariga qaraganda ko'proq ishlatiladi, ayrimlari esa kamroq qo'llaniladi. Ko'p qo'llaniladigan so'zlar – odatiy so'zlar hisoblanadi va ular odamning **aktiv so'z boyligini** tashkil qiladi.

Kundalik leksikaning, kasbiy va ish faoliyati bilan bog'liq hodisa va buyumlarning nomlarini ifodalovchi so'zlari **odatiy so'zlar** deyiladi. Odatiy so'zlarni talaffuz qilish qiyin bo'lmaydi.

Passiv so'z boyligiga kiruvchi so'zlar – ular oldindan ma'lum bo'lsa ham, turmush yoki ish faoliyatida ko'p ishlatilmasligi va foydalanilmasligi sababli, qiyin talaffuz qilinadigan bo'ladi.

Belgilarning keyingi guruhi og'zaki nutqning eng kichik birligi – tovushni ifodalaydi. Lingvistik tahlilda so'zlar va tovushlarni, mavjud amaldagi orfoepik lug'atlarda qayd etilgan talaffuz qilishdagi noto'g'rilik, talaffuz normalaridan chetlashishlarga alohida e'tibor qaratish lozim. So'z va tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish shakllangan ko'nikmalar, shuningdek organik yoki funktsional xarakterdagi artikulyatsion apparat tuzilishining xususiyatlari bilan ifodalanadi.

Shunday qilib, og'zaki nutqning asosiy lingvistik belgilari, ularni turli til darajalariga hamda xususiyatlari ta'riflanadigan og'zaki nutq birliklariga mansubligi bo'yicha bir necha guruhlariga bo'linishi mumkin.

Og'zaki nutqning lingvistik belgilari quyidagi guruhlariga bo'linadi: fonetik, leksik-semantik va semantik-sintaksik.

Fonetik belgilar og‘zaki nutqning fonetik tuzilishidagi xususiyatlarni ta’riflaydi. Ular alohida og‘zaki nutqning artikulyatsiyasining xususiyatlari, qo‘shilgan og‘zaki nutqdagi tovushlar birikmalari, fonetik so‘zlar, sintagma, fon, xatboshilarning prosodik tashkil qilishda namoyon bo‘ladi. Prosodik belgilarga nutqda urg‘uli va urg‘usiz, uzun va qisqa bo‘g‘inlarni talaffuz qilish xususiyatlari kiradi.

Fonetik belgilar tahlilning ikki asosiy metodlari – auditiv va instrumental metodlar yordamida aniqlanadi. Auditiv tahlil metodi – og‘zaki matnni eshitish va lingvistik tasniflash yordamida lingvistik belgilarni sifat jihatdan ta’riflash bo‘lsa, instrumental metod – og‘zaki nutq signalini qayd etish va turli qurilma (spektrograf, ossillograf, intonograf va o‘lchov-hisoblash majmua)lar yordamida tegishli o‘lchashlarni amalga oshirish. Masalan: “dori” so‘zidagi “r” tovushini talaffuz qilishdagi o‘ziga xoslik (titrovchi); “ke(l)sa”, “qi(l)moq” so‘zlari o‘rtasidagi fonetik tarkibni soddalashtirish.

Leksik-semantik belgilar so‘zlarni individual talaffuz qilish xususiyatlari, erishilgan stilistik samaraning xususiyati, aktiv va passiv so‘z boyligi hajmi, uning turlichaligi va h.k.larni aks ettiradi.

Leksik-semantik belgilar – “kontent-tahlil” deb ataladigan va og‘zaki matn birliklari va uning stilistik xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradigan metod yordamida aniqlanadi. Og‘zaki nutqning tegishli qismlaridagi alohida so‘zlardan foydalanish va ularning mazmuni, gap bo‘laklari (birikma, yuklama, undov so‘z, olmosh, sifat, lahja-sheva, ot, f’el)ning sifatiy ko‘rsatgichlarini olish uchun – og‘zaki nutq leksik tarkibini statistik tahlili matematik metodlari qo‘llaniladi. Masalan: cheklangan doiradagi (kasbiy) so‘zlardan foydalanish: “dori”, “ukol”, “operatsiya”, “tashxis”, “tahlil”, “bemor”; soddalashgan gaplardan foydalanish: “men keldim”; “telefon jiringladi”; “oldim”.

Semantik-sintaksik belgilar grammatik ahamiyat (gap bo‘laklarining son, kelishiklarda o‘zgarishlari, tilda qabul qilingan modellar bo‘yicha so‘z hosil qilish, so‘z birikmlari)ni baholashda, stilistik iboralarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari, talaffuzda so‘zlarni ishlatish ketma-ketligi va h.k.da ifodalanadi.

Belgilarning bu guruhini aniqlash va baholash uchun gap bo‘laklari bo‘yicha sintaksik va grammatik ajratish metodlari, gaplarni turi (sodda, bog‘langan qo‘shma gap yoki ergashgan qo‘shma gap va h.k.) bo‘yicha tasniflash metodlari qo‘llaniladi. Statistik baholash matematik metodlari ibora va gaplarning o‘ziga xos sintaksik tuzilishining uchrab turish chastotasini aniqlashga imkon beradi. Masalan: fikr bildirish doirasidagi sintaksik takrorlanishlarning mavjudligi: “keldi meni oldimga - meni oldimga kelib”....“Bu yerda turmaganda - bu yerda”.

Lingvistik tahlilning aniq bir turdagi belgilar guruhini aniqlash uchun muayyan bir metodini qo‘llash og‘zaki matnning turiga bog‘liq bo‘ladi. Bir necha

usullarni birgalikda qo'llash aniq bir shaxsning og'zaki nutqini individuallashtiruvchi og'zaki nutq xususiyatlari yig'indisini to'laroq ajratib olish imkonini beradi.

Fonografiya ekspertizaning taqqoslash tadqiqotlari bosqichida noma'lum shaxs va taqqoslash uchun taqdim etilgan namunalardagi og'zaki nutqlarning belgilar guruhi orasidagi o'xshashlik yoki farqlanish darajalari, shuningdek, belgilarning individual majmuining mavjudligi aniqlanadi, so'ng esa tekshirilayotgan materiallarda og'zaki nutqi yozilgan shaxsning aynanligi yoki aynan emasligi bo'yicha xulosa shakllantiriladi.

O'zbek tilidagi mahalliy gaprishlarning ko'p miqdorda mavjudligi, ularni hududiy mansubligi bo'yicha qismlarga ajratish, o'zbek tilidagi nutqni sezilarli guruhiy farqlarni keltirib chiqaradi, bu farqlarga boshqa tillarning milliy xususiyatlarining ta'siri ham sezilarli bo'ladi. Shuning uchun og'zaki nutqning shevaga xos (dialektli) fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bo'yicha tekshirilayotgan shaxsning uzoq muddat davomida qay hududda istiqotmat qilganligini ham aniqlash mumkin bo'ladi.

So'zning aynan bir ritmik chizmasi (sxemasi) bo'yicha fonetik to'ldirilishini aniqlashda ham lingvistik tahlil qo'llaniladi (masalan, quyidagi so'zlardan qaysi biri aytilganligini aniqlashda: "oldim" yoki "olmadim"). Ba'zida ma'lum bir gapni aynan qanday urg'u (so'roq urg'usi bilan yoki birorta harakatga undovchi buyruq berish urg'usi) bilan talaffuz qilinganligini aniqlashga ehtiyoj tug'iladi.

Shuning uchun ta'kidlash joizki, gapning leksik tarkibi bilan bu gapning aytishdagi urg'uning o'zaro nisbati muammosi – ayrim hollarda og'zaki nutq bo'yicha shaxs tomonidan u yoki bu turdagi fikrlarga berishi mumkin bo'lgan qo'shimcha mazmunni, ba'zida esa o'z fikrini asl ma'nosini to'liq o'zgartirib yuborishi mumkin bo'lgan qo'shimcha mazmunni aniqlash imkoni bilan uzviy bog'liqdir.

Auditiv tahlil og'zaki matnni eshitish va fonogrammada taqdim etilgan og'zaki nutqning tabiati (xususiyati)ni aniqlashdan boshlanadi va unda quyidagi jihatlarga e'tibor qilinadi: og'zaki nutq monologmi, dialogmi yoki polilogmi? Eshitish jarayonida yozilgan og'zaki nutqning aniqligi (tushunarlilik) darajasi aniqlanadi va yozuvning yaroqliligi hamda uning mazmunining umumiy tabiati haqida umumiy tasavvurlar hosil qilinadi.

So'ng ko'p marta eshitishlar asosida, og'zaki matnni aniqlash va uni yozma shaklda qayd etish (agar eshitish yomon bo'lsa) amalga oshiriladi.

Auditiv tahlil natijasida, dialogli yoki polilogli matn bilan ishlash talab etilsa, matnni qayd etishda, matnning turli shaxslarga tegishli bo'lgan qismlari (lavhalari)ni, ularga turlicha indekslar berib, ajratib olish; undan tashqari, shevga

xos belgilarni ajratib olish maqsadida, har bir shaxsning og‘zaki nutq matnini alohida yozib olish zarur.

Undan so‘ng, bu so‘zlar va gaplarning har birini turli shevaga oid lug‘atlardan topib olishga harakat qilinadi, agar ular bu kabi lug‘atlardan topib olinsa, shaxsni tegishli sheva yoki shevalar guruhiga mansubligi haqida xulosa qilish mumkin bo‘ladi.

Fonogramma matnini tahlil qilishda fonologik (assimilyatsiya, dissimilyatsiya, tovushlarni tushib qolishi va h.k.) bilan birga grammatik chetlashishlar (morfologiya, sintaksis)ga ham alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. So‘ng, grammatik lug‘at va qo‘llanmalardagi tegishli ma‘lumotlar asosida, bu kabi chetlashishlar aynan qanday shevga xosligi aniqlanadi hamda tekshirilayotgan shaxsning tegishli shevga mansubligi bo‘yicha xulosa qilish mumkin bo‘ladi.

Fonogrammaning auditiv tahlili jarayonida, yozuvlarni aniqlash va qayd etish bilan birga, og‘zaki nutqdagi prosodik xususiyatli belgilarni aniqlashga ham alohida e‘tibor qaratiladi. Shuning uchun, quyidagi holat alohida qiziqish uyg‘otadi: agar shaxsni ovozi bo‘yicha identifikatsiya qilishda, yaqqol ifodalangan prosodik xususiyatlar (asosiy ton, temp, urg‘u, ritm, pauza, intensivlik, tembr)dan ixtiyoriy biriga afzallik beriladigan bo‘lsa, og‘zaki nutqing biror bir shevaga mansubligini aniqlashda, shevaga xos belgilarning uchtasi (melodika, urg‘u, ritm)gagina tayanish mumkin, chunki, turli shevalar bir-biridan prosodik jihatdan ana shu uchta belgilar bilangina farq qiladi.

Ta‘kidlash joizki, fonogrammadagi og‘zaki nutqni qayd etish va ko‘p marta qayta eshitish imkoniyati, shuningdek lingvistik tahlil metodlarini qo‘llash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyatlarni tergov qilish va fosh etishda, juda ko‘plab vazifalar (identifikatsiya qilish, yozuvlarni montaj qilinganligini aniqlash, og‘zaki matnining so‘zma-so‘z mazmuni va shaklini aniqlash, odamning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash)ni bajarishga imkon yaratdi.

Og‘zaki nutqning umumiy belgilarini ekspertiza tadqiqotlari uslubi

Fonogrammalarning tadqiqotlari bilan bog‘liq ko‘plab identifikatsion va diagnostik vazifalarni hal qilishda, eshitish bilan idrok etiladigan **og‘zaki nutq (ON)** belgilarini tahlil qilishning o‘rni juda muhimdir. Og‘zaki nutqni eshitish orqali tahlil qilishni eshtiriladigan nutq eksperizasining asosiy metodi sifatida qarash mumkin.

Og‘zaki nutqlarga qayta ilov berish imkoniga ega bo‘lgan apparat-dasturiy majmualarni paydo bo‘lishi bilan, shaxsni ovozi bo‘yicha identifikatsiya qilishning avtomatik metodlari ishlab chiqila boshlandi, ularning asosida – alohida individuum (shaxs)ning og‘zaki nutqidagi murakkab o‘zgarishlar (artikulyatsion, leksik, sintaksik darajalar va h.k.) og‘zaki nutq signalining turli akustik xususiyatlari

ko‘rinishida namoyon bo‘lishi haqidagi gipoteza yotadi. Ammo shaxsni ovozi bo‘yicha instrumental tahlil qilishda odam og‘zaki nutqining murakkab, turli o‘zgarishlarga uchragan tuzilishini aniqlash imkoni mavjud emas. Shu bois, og‘zaki nutqni eshitish orqali tahlil qilish ma’qul bo‘ladi. Shu bilan birga, bu kabi tahlil endi zamonaviy darajada va butunlay boshqa hajmda (mazmuniy elementlar, so‘zlashish stili, gap va iboralarning sintaksik tuzilishi, so‘zlarni tanlash, so‘z boyligi, muhit va shevaning ta’siri, boshqa tillarni bilishi, og‘zaki nutqning tiniqligi yoki jarangdorligi, ovozning melodikasi, urg‘u berish xususiyati, og‘zaki nutq nuqsonlarining tahlili va h.k.) amalga oshiriladi.

Eshitish yordamida tadqiqot qilish jarayoni – eng tiniq va jarangdor og‘zaki nutqga tegishli bo‘lgan hodisa va xususiyatlar yig‘indisini, shuningdek unga yo‘ldosh bo‘lgan barcha (fonetik, sintaksik, leksik, semantik, ruhiy tartibdagi va h.k.) hodisalarni qamrab olishi mumkin.

Odamning eshitish qobiliyati ovozlarning juda nozik tomon va jihatlarini ajratib olishi mumkin va bu jihatlariga ko‘ra so‘zlovchining shaxsi – uning gapirish paytidagi ruhiy-emotsional holati; suhbat yuz berayotgan shart-sharoit, suhbatning ishtirokchilari va h.k.lar haqida fikr yuritish mumkin bo‘ladi.

Og‘zaki nutqni tadqiqoti uslubi asosida, ovoz va tovushlarni talaffuz qilish mexanizmi va uning qonuniyatlarini bilish, talaffuz belgilari tizimi, ON ko‘nikmalarini shakllanishi, talaffuzni individulalashtirish jarayoni va ON, ular belgilarining tasniflanishini bilish yotadi.

Ekspert faoliyatining o‘ziga xosligi uning faoliyat quroli bo‘lgan – eshitish qobiliyati bilan ifodalanadi.

Ekspert eshitishni yanada yaxshiroq bo‘lishini ta’minlaydigan turli moslamalardan foydalanishi mumkin, ammo, texnik vositalar dastlabki signallarni buzishi mumkin bo‘lgani sababli, ekspertiza olga qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun, ekspert asosan, o‘zining eshitish qobiliyatiga tayanadi. Bunda ekspertning, og‘zaki nutqning fonetik belgilari va turli akustik hodisalarga nisbatan eshitish tajribasi, uning “ko‘p eshitganligi”, eshitish xotirasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekspert fonogrammada mavjud bo‘lgan belgilar majmuini umumlashtiribgina qolmasdan, uni – bir vaqtni o‘zida aytilganlarni mazmunini aniqlash, so‘zlovchining shaxsi va uning ruhiy-emotsional holatini aniqlash, fonogramma yozilgan shart-sharoitlarni aniqlash va h.k. vaziflarni bajarish uchun – bo‘lishi (ajratishi) ham mumkin.

So‘zlovchi ovozining akustik parametrlarini ajratish va ta’riflash uchun “*eshitish-persepsion* (sluxopersepsion analiz) *tahlil*” usuli qo‘llaniladi. Xulosalar ekspertning ma’lumotni idrok qilish (eshitish) qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ekspert muayyan bir akustik belgilarni ko‘rsatishi mumkin, ammo xulosa chiqarishda baribir

uning eshitish tajribasi yotadi. Soʻzlovchining talaffuzi kelganda esa, tegishli maʼlumotlar fonetika, fonologiya va h.k. sohalaridagi maxsus bilimlarga asoslanishi kerak. ONni tadqiqotlari lingvistik tahlil, yaʼni tilga oid belgilarni ajratish va taʼriflash bilan bogʻliq (bunda ham ekspertning eshitish qobiliyati, eshitish tajribasi talablar juda yuqori boʻladi), buning uchun tilshunoslik, psixolingvistika, nutq psixologiyasi va h.k.lar sohasida bilimlar zarur boʻladi.

Shunday qilib, eshitish orqali tahlil qilish quyidagi ikki usul yordamida amalga oshiriladi:

1) ekspertning ovozli maʼlumotni idrok qilish (eshitish) qobiliyatiga asoslangan – *eshitish-persepsion tahlil (sluxopersepsion analiz)ʻʻ uslub;*

2) ekspertning ogʻzaki nutqning umumiy va xususiy belgilarini idrok etish qobiliyati bilan mustahkamlangan maxsus bilimlariga asoslangan – *“eshitish-lingvistik (sluxolingvistik) metod”.*

Birinchi holda tadqiqot obʼekti boʻlib – hosil boʻlishi tabiatidan qatʼiy nazar ovoz, shu jumladan, odamni artikulyatsion tizimi tomonidan hosil qilinadigan ovoz hisoblanadi.

Ikkinchi holda esa tadqiqot obʼekti boʻlib ogʻzaki nutq deb ataladigan lingvistik tizim hisoblanadi. Ularning tadqiqotlarida kriminalistika va muallifshunoslik eksperizalariga oid maʼlumotlar qoʻllanilishi mumkin.

Fonografiya ekspertizalarni oʻtkazishda ONni oʻziga oluvchi kommunikativ holatlarning barcha komponentlarini qamrab olishni iloji yoʻqligi sababli, avvalo kommunikatsiya aktidagi maxsus rolini hisobga olgan holda ONning lingvistik xususiyatlarini oʻrganish va soʻng, bu xususiyatlar orqali ONning u yoki bu belgilariga taʼsir qiluvchi axborotlarni noverbal uzatuvchi (beruvchi) vositalar bilan ONning aloqasini aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Mazkur metodika gaplashish nutqi (GN)ning tergov va ekspertlik amaliyotida eng koʻp uchraydigan turi – ON (ogʻzaki nutq)ni oʻrganishga moʻljallangan.

GN erkinlik, gapirish holatiga tayyorgarlik koʻrmaslik, ishtirokchilar (suhbatdoshlar)ning gapirish holatida bevosita ishtiroki kabilar ifodalanadigan kommunikativ aktda aniqlanadi.

Ogʻzaki fikr bildirish – murakkab hosila boʻlib, uning tarkibiy qism (komponent)lari turli tegishli modellar tuzish yoʻli bilan bir-biridan ajratilishi hamda alohida ham, birgalikda ham tadqiqot qilinishi mumkin.

Sud-fonografiya ekspertizalarni oʻtkazishda ovoz va ON belgilarini toʻgʻri tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Tasniflash ovozni xuddi tovushli hodisa sifatida tadqiq qilish imkonini beradi, natijada unda quyidagicha umumiy akustik belgilar eshitish orqali oʻrganilishi mumkin: ovoz balandligi (yuqori, past), ovoz kuchi (kuchli, oʻrtacha, kuchsiz), tembr — ayollar ovozi (kuchli, oʻrtacha, kuchsiz), erkaklar ovozi (juda baland, baland, oʻrtacha, kuchsiz).

Og‘zaki nutq belgilari

ON belgilari umumiy va xususiya bo‘linadi. Umumiy belgilar odam nutqiga xos bo‘lgan xususiylarni yaxlit ifoda qiladi, ular nutqning ahamiyatli xususiylarini, masalan ONni egallaganlik darajasini aks ettiradi, xususiyl belgilar — ON elementlarining ayrim tomonlari, ko‘nikmalarni aks ettiradi. Umumiy va xususiyl belgilar o‘zaro bog‘liq, ammo umumiy belgilar ustuvor, aniqlovchi bo‘lib hisoblanadi.

ON muayyan tilning umumiy tizimiga kiruvchi turli o‘zaro bog‘liq elementlarning murakkab tuzilishidan iborat. Bu tuzilishdagi asosiy pog‘ona – tilning ovoz birliklarini o‘ziga olgan ovozli tuzilishi hisoblanadi, ular quyidagilar: fonetika tomonidan o‘rganiladigan tovushlar, urg‘u berish va intonatsiyaning turli shakllari.

Nutqning ovozlarini tahlil qilishda, ushbu ovozlarni hosil qilishda ishtirok etadigan nutq organlarining anatomik-funksional xususiylari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Nutq ovozlarning bunday tahlili artikulyatsion tahlil deb ataladi. Nutq ovozlari shuningdek, so‘zlovchi ovozining fizikaviy xususiylarini aks ettiruvchi belgilarga ham ega bo‘ladi, bu belgilar tahlili fizikaviy, to‘g‘rirog‘i akustik tahlil deb ataladi.

Nutq tovushlari va ularning birikmalari so‘zning tovushli jihatlarini tashkil qiladi va u orqali muayyan ma‘noni hosil bo‘lishda ishtirok etadi. Nutqning bu jihatlarini tahlillari, ya‘ni nutqning lingvistik va ma‘nosini farqlovchi funksiyalari nuqtai nazaridan tahlillari fonetikaning lingvistik omili (aspekti)ni tashkil qiladi hamda ular tilshunoslikning maxsus bo‘limi – fonologiyada o‘rganiladi.

Yuqoridagilardan, nutqning fonetik tuzilishi uning umumiy belgisi ekanligi kelib chiqadi, nutqning fonetik tuzilishi o‘ziga bir qator xususiyl belgilar – fonologik, artikulyatsion va akustik belgilarni qamrab oladi. ***Nutqning fonetik tuzilishi*** deganda uning tuzilish yetukligini tushunish lozim.

Eshitilayotgan nutqning umumiy fonetik belgisi – fonetik vositalarni, ularni belgilangan normalarga mosligi nuqtai nazaridan baholash yo‘li bilan aniqlanadi.

Eshitilayotgan nutqning umumiy fonetik belgilarining tasniflanishi. Tilning tovushli vositalarini bilishning artikulyatsion ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasi (yuqori, o‘rtacha, kichik). Bu belgi artikulyatsion apparat harakatining tempi (sur‘ati) bilan (tez, o‘rtacha, sekin, patologik sekinlashgan) va uning koordinatsiyasi darajasi bilan (yuqori, o‘rtacha, kichik) ifodalanadi.

Koordinatsiya tempi va darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi:

- talaffuz qilinayotgan ovozlarning artikulyatsion aniqligi va tushunarliiligi;
- so‘zlash jarayonidagi nafas olish harakatlarining oqilonaligi (ratsionalligi);
- ritmiklik;

- bir xil tovushlarni talaffuz qilishda artikulyatsion barqarorlik (turg'unlik).

Fonologik ko'nikmalarning asosiy belgilari:

– orfoepik (talaffuz qilish) ko'nikmalarning rivojlanganlik darajasi – talaffuzdagi hatolarning soniga bog'liq ravishda baholanadi. Yuqori rivojlangan, kam rivojlangan va rivojlanmagan ko'nikmalar turlari mavjud. Bunday ko'nikmaning sifat ko'rsatkichlari: to'g'ri – noto'g'ri; normativ-nonnormativ (normativ emas);

– nutqning ritmik tashkillashtirilganlik darajasi (urg'ularning joylashtirilishi – so'zli urg'u, mantiqiy urg'u, pauz va h.k.) – yuqori, o'rtacha, past;

– nutq melodikasining rivojlanganlik darajasi – yuqori, o'rtacha, past.

Eshitilayotgan og'zaki nutqning xususiy fonetik belgilarini tasniflashi

Xususiy belgilar nutqning ovozli tuzilishidagi xususiyat va turli xossalarini aks ettiradi. Bu xususiyat va xossalar tuzilishdagi barqaror buzilishlar, muayyan ovoz vositalaridan foydalanish va so'zlovchi tomonidan tipik suhbat jarayonida foydalaniladigan tovushli vositalarning aniq o'zaro munosabatlarida ifodalanadi.

Xususiy belgi deganda nutqda alohida tovushlarni talaffuz qilishdagi artikulyatsion apparat harakatlarining o'ziga xos xususiyatli ko'nikmalari, shuningdek shaxsni uning eshitilayotgan nutqi bo'yicha identifikatsiya qilish uchun mustaqil identifikatsion ahamiyatga ega bo'lgan, nutqning bir necha tovushlarini birikmalari tushuniladi.

Artikulyatsion ko'nikmalarning xususiy belgilari bu – quyidagilarni ifodalovchi belgilar hisoblanadi:

– hosil bo'lish joyi va usullariga ko'ra nutq ovozlarni, shuningdek ovozlarni hosil bo'lishida nutq organlari ishtirokini (passiv, aktiv, tashqi, ichki);

– tovushlarni talaffuz qilishdagi artikulyatsion a'zolarining intensivligi (mushaklar intensivligi);

– “diksion nuqson” deb ataladigan nutq apparati nuqsonlari bilan bog'liq tovushlarni talaffuz qilishdagi xususiyatlar — “sh-j” lab gapirish (shepelyavost), til chuchukligi, ping'illab gapirish.

Fonologik ko'nikmalarning xususiy belgilari. Ularga quyidagilarni barqaror buzilishlar kiradi:

– nutq ovozlarni talaffuzini, ya'ni noto'g'ri, normativ bo'lmagan talaffuz;

– orfoepiya (talaffuz qilish)ning muayyan qoidalarini; nutq ovozlarning muayyan ritm-urg'u qoidalarini (masalan, urg'u berish qoidalarini);

– ON (nutq yadrosi)ning umumiy identifikatsion belgilarini.

Og‘zaki nutq (ON)ni bilish (egallaganlik) darajasi

Grammatika qoidalarini bilish va katta so‘z boyligi u yoki bu odamning to‘g‘ri normativ nutqi, unda mavjud vaziyatga mos so‘zlashuv stili mavjudligining kafolati hisoblanmaydi. Og‘zaki nutqni egallaganlik darajasi fikrlash apparatining rivojlanganligi (rivojlanmaganligi) haqida guvohlik beradi.

1. Og‘zaki nutqni yuqori darajada egallash – odamning intellektual darajasi, uning ma’lumoti (savodxonligi) va hayotiy tajribasi bilan ifodalanadigan mazmun jihatdan boyligi va chuqur ma’noiligi bilan ajralib turadi. Rivojlangan og‘zaki nutqda turli buyumlar, hodisa va jarayonlarning eng muhim ahamiyatlari aks etadi. Fikrlashning aniqligi, aslligi va egiluvchanligi – fikrlarni bir qolipda bayon qilishdan voz kechishda, til vositalaridan mustaqil va ijodiy tarzda foydalanishda, so‘z boyligining kattaligida namoyon bo‘ladi.

2. Og‘zaki nutqni o‘rtacha darajada egallashda – u tilning leksik, sintaksik va frazologik vositalaridan unchalik keng bo‘lmagan tarzda foydalanish, so‘zlash stilining yetarlicha bir xildaligi bilan tavsiflanadi. So‘zlovchining asosiy fikri unchalik aniq ajralib turmaydi, fikrlarni bayon qilishning qat’iy ketma-ketligi va tuzilishi mavjud bo‘lmaydi.

3. Og‘zaki nutqni o‘rtacha darajada egallash haqida so‘zlovchining so‘z boyligini juda kamligi, qisqa, bir qolipdaligi, to‘liq emasligi, ba’zida esa tushunrsaiz iboralar guvohlik beradi.

Grammatik ko‘nikmalarning rivojlanganlik darajasi

ON grammatik ko‘nikmalarining rivojlanganligi haqida avvalo, talaffuzdagi hatolarning soni va xususiyatlarga ko‘ra fikr yuritiladi, ammo bunda, tegishli xulosa qilishda ehtiyotkor bo‘lish talab etiladi, chunki odamlar o‘z fikrini to‘la bayon qilish uchun so‘z o‘yini, o‘z nutqini niqoblash, taqlid qilish va boshqa usullardan foydalanadilar. Grammatik ko‘nikmalarning rivojlanganlik darajasi belgisini baholash juda qiyin bo‘lishiga qaramasdan, bu belgi juda ko‘p ma’lumotlar bera oladi. Bu belgini aniqlash miqdoriy va sifatiy mezonlardan foydalanish bilan ancha ososnlashadi.

ONda sintaksik hatolarni aniqlash juda mushkul vazifa, chunki kommunikativ akt (holat) bo‘lgan suhbat (so‘zlashuv, gaplashish)da, o‘z fikrlarini bayon qilish mavjud vaziyat bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Binobarin, og‘zaki nutqning sintaksik tuzilishini – agar ushbu o‘zaro harakatlarning mavjud qonuniyatlarini situatsion tahlil orqali tushunilsagina adekvat tarzda ta’riflash mumkin bo‘ladi.

Stilistik ko'nikmalarning rivojlanganlik darajasi

Til vositalarining, inson faoliyatining ishga oid, ilmiy, ishlab chiqarish va hk. sohalarida eng samarali muloqot ta'minlanadigan maxsus yig'indisini **stil** (muloqot usuli) deb atash mumkin. Ekspert-fonografistlar uchun individual stil tushunchasini aniqlab olish muhimdir.

Har bir odam o'z milliy tilining o'zining ruhiy xususiyatlariga mos keluvchi, uning maqsad va ehtiyojlarini qondiruvchi qismini o'rganadi. Umum miliy tildagi nutq vositalarini tanlab olishga, tilni o'rganish uslubiyoti, odamning hayot sharoitlari ta'sir qiladi. Alohida bir shaxsning tili va maktabda o'qitiladigan mavjud adabiy til albatta o'zaro mos tushmaydi. Har bir inson o'zining qobiliyatidan kelib chiqib, o'z fikrlarini to'liq bayon qilish maqsadida, asl (alohida) leksik tuzilmalar hosil qiladi va ulardan foydalanadi.

Shunday ekan, **individual stil** deganda – har bir inson uchun xos bo'lgan, shaxs tomonidan o'qish va so'zlash amaliyoti jarayonida hosil qilingan, o'z fikrlarini bayon qilish uchun nutqdan foydalanish ko'nikma va malakalarini ifodalovchi til vositalarining yig'indisi tushuniladi.

1. **Stilistik ko'nikmalar yuqori darajada rivojlangan** - bo'lganda shaxsning nutqi jiddiy stilistik nuqsonlardan xoli bo'ladi. Bu albatta, bu kabi nutq adabiy til normalariga to'liq mos tushadi degani emas. O'z nutqining yaxshi ifodalash maqsadida yuqori rivojlangan stilistik ko'nikmaga ega bo'lgan odamlar, ongli ravishda adabiy til normalaridan chetlashadi va buning uchun nutqida arxaizm (eskirgan so'z va iboralar) va neologizm (yangi so'z va iboralar), sodda so'z va iboralar, dialektizm (shevga xos so'z va iboralar) va h.k.lardan foydalanadi.

2. **Stilistik ko'nikmalar o'rtacha darajada rivojlangan** – bo'lganda nutqda unchalik ko'p va unchalik qo'pol bo'lmagan stilistik hatolar uchrab turadi: bunday hatolar asoslanmagan va turli stilga oid so'z va iboralarni qo'lashda, gapning tarkibiy qismlarini mantiqiy bog'lashni buzilishida, shuningdek ayrim so'zlarni o'z o'rnida qo'llamaslikda namoyon bo'ladi.

3. **Stilistik ko'nikmalar kam darajada rivojlanishi** uchun nutqda ko'plab stilistik hatolarning mavjud bo'lishi xosdir: oddiy va murakkab gaplarning tarkibiy qismlari orasidagi mantiqiy bog'lanishning buzilishi, bir fikrni boshqacha so'zlar bilan ifodalash (tavgologiya), vulgarizm (beadab so'z yoki ibora), sodda so'z va iboralar va jargonizm (jargonga xos so'z yoki ibora)lardan asossiz foydalanish.

Til vositalaridan foydalanish (funksional stil) ko'nikmalarining o'ziga xosligi

1. Funksional stillar nutqdagi maxsus atamalar va iboralarining mavjudligi bilangina emas, balki nutq yoki sintaksik tuzilishlarning u yoki bu qismlaridan foydalanish chastotasi, ya'ni muayyan funksional stilning til vositalarining

ustuvorligi bilan ham o'zaro farqlanadi. Og'zaki nutq uchun gapning egasi va unga oid so'zlarni tushirib qoldirish bilan iboralarni qisqartirish xos bo'ladi. ONning sintaksik tuzilishlarining identifikatsion ahamiyatini baholashda, suhbat kechayotgan vaziyatni hisobga olish zarur. Tegishli sintaksik tuzilishlardan foydalanishda bu kabi vaziyatlar – vaziyatning asl mohiyatining o'zni, suhbatdoshlar bu vaziyatni turlicha idrok qilganlarida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Fikr bildirishning funktsiya qilishi to'g'riligini aniqlash uchun, kontekst (nutqning tugal fikr anglatuvchi parchasi) haqida tasavvurga ega bo'lish lozim.

2. Muayyan turdagi (oddiy va murakkab) gaplardan foydalanish ko'nikmalari so'zlovchilar tomonidan qo'llanilayotgan funktsional stil vositalariga bog'liq bo'lmagan holda ham namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, agar shaxs mayishiy mavzuda suhbat olib borayotgan bo'lsa, u holda oddiy gaplashish stili yuzaga kelishi, so'zlovchining nutqi asosan sodda gaplardan iborat bo'lishini ham unutmaslik darkor. Maxsus mavzuga oid suhbatlashishda esa so'zlovchi murakkab gaplardan foydalanadi.

3. Birikkan va birikmagan sintaksik bog'lanishlardan foydalanish ko'nikmalari yetarlicha barqaror bo'ladi. Ayrim shaxslarning nutqi birikkan tuzilishlardan iborat bo'lsa, boshqalar birikmagan tuzilishlardan foydalanadi, ularning nutqidagi murakkab gaplarda ham birikmalar kam uchraydi.

4. Gaplarni ajratishlardan foydalanish til vositalarini rivojlangan qo'llash ko'nikmalaridan dalolat beradi. Bunday ko'nimlar odatda barqaror bo'ladi.

5. Funktsional stillar turlicha bo'lishiga qaramasdan, ularning barchasi turli frazeologik vositalar, ya'ni nutqda barqaror so'z, gap va iboralardan foydalanish bilan xarakterlanadi. Ularning mavjud bo'lishi nutqning emotsionalligini bildiradi.

So'z boyligi va leksik ko'nikmalari

So'z boyligi katta va cheklangan bo'lishi mumkin. Faqat katta hajmdagi matnlarni tekshiribgina bu haqida fikr yuritish mumkin: nutqda turli sinonimlar va turli ta'riflardan foydalanish holati yetarlicha katta so'z boyligidan dalolat beradi. Aynan bir so'zlarni asossiz qo'llash, u yoki bu buyum (hodisa, jarayon)ning bir tarzda ta'riflash so'z boyligini kamligidan darak beradi.

Leksik ko'nikmalari rivojlangan shaxslar kasbga oid so'zlar (professionalizm)ni ko'p ishlatadi. Bunday so'zlarga odamning kasbiy faoliyatiga oid buyum va hodisalarni ifodalovchi so'zlar kiradi (masalan, «*Men ularga yangi qo'shiq ko'rsatdim*» — «*ijro etdim*» so'zi o'rniga «*ko'rsatdim*» so'zi — san'atkorlarda).

Professionalizmlar — leksik ko'nikmalarining umumiy belgisidir, ammo ularning nutqda mavjud bo'lishi har doim ham shaxsni ushbu so'zlar tegishli bo'lgan

kasb egasi ekanligidan dalolat bermaydi, balki bu shaxsning dunyoqarashi kengligini ham, shu kasb egalari bilan ko‘p muloqot qilishini bildirishi ham mumkin.

Leksik ko‘nikmalarga “leksik-stilistik hatolar” deb ataluvchi belgilarning katta guruhi ham kiradi. Shevaga xos leksik ko‘nikmalar juda ko‘p hollarda ONda muayyan sheva, lahjaga oid so‘zlar va iboralarni paydo bo‘lishiga olib keladi. Moda bo‘lgan, jumladan jargon so‘zlar ayrim hollarda muloqotlarda keng tarqaladi, ammo ular cheklangan odamlar guruhiga tegishli bo‘lishi mumkin. Ayrim shaxslarda o‘z ona tili bo‘yicha leksik ko‘nikmalar yaxshi rivojlanmagan bo‘lsa, boshqa til leksikasidan foydalanish holatlari ham uchrab turadi.

Identifikatsion belgilarning bir turi so‘zlarni noto‘ri ishlatish hisoblanadi (xususan, bu so‘zlarning mazmunini yetarlicha tushunmaslik oqibatida); ko‘p hollarda bu xorijiy til so‘zlariga tegishlidir. So‘z ijodkorligi bilan bog‘liq bo‘lgan leksik hatolarni ham shu guruhga kiritish mumkin.

Taqqoslanayotgan og‘zaki matnlar va ularning modellarini tahlil qilishda – identifikatsion ahamiyat va belgilarning o‘xshashlik me‘yor (o‘lcham)larini maxsus baholash metodi yaxshi samara beradi. Bu metod tadqiqotlar jarayonida yuzaga keladigan kichik vazifalarni yengillashtirish uchun, ekspertlarga yordam ko‘rsatish maqsadida jalb qilingan psixolingvistika, filologiya, fonetika, dialektologiya va h.k. soha mutaxassislari ishtirokida qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalarini baholash – ekspertizaning muhim bosqichi

Nutq ko‘nikmalarining stereotip (qoliqli) xususiyatlari faqat muayyan sharoitlardagina to‘liq namoyon bo‘ladi. Masalan, agar suhbat predmeti oldin (o‘tmishda) muhokama qilingan bo‘lsa, suhbat odatiy sharoitlarda, keraksiz buzuvchilar ta’sirsiz, mo‘tadil (normal) ruhiy va jismoniy holatda kechadi. Bunda nutq ko‘nikmalarining muayyan “tizimligi” kuzatiladi; ular har doim o‘zgaruvchan (harakatda) bo‘ladi va suhab kechayotgan sharoitlarni o‘zgarishlariga bog‘liq bo‘ladi.

Identifikatsion ahamiyat va o‘xshashlik me‘yori (o‘lchamlari)ni baholashda, oldin ko‘rib o‘tilgan situatsion omillarni hisobga olish zarur.

Ayrim asab va ruhiy kasalliklar, og‘ir infeksiya kasalliklar va intoksikatsiya (zaharlanish)lar nutq tovushi va talaffuz ko‘nikmalarining patologik o‘zgarishlariga olib keladi. Bunday ko‘nikma (duduqlanish, “sh”-“j”lab gapirish)lar nisbatan barqaror bo‘ladi.

Nutq belgilarini ataylabdan o‘zgartirish maqsadida, ko‘p hollarda nutqni niqoblash amalga oshiriladi, nutqni imitatsiya qilish esa nisbatan kamroq uchraydi. Buning sababi shundaki, birinchi holatda (nutqni niqoblashda) nutq belgilarini o‘zgartirishning o‘zi yetarli bo‘ladi, ikkinchi holatda (nutqni imitatsiya qilishda) –

nutq belgilarini o'zgartirish bilan birga, boshqa odamning nutqidagi o'ziga xos xususiyatlarini ham talaffuz qilish talab etiladi. Shu bilan birga, nutqni niqoblash – nutqi rivojlangan, nutqining niqoblamoqchi bo'lgan xususiyatlarini aniqlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslar tomonidagina amalga oshirilishi mumkin. Bu holat asosan, savodxonlik darajasini kamaytirish va murakkab til vositalaridan voz kechish hisobiga yuz beradi.

Nutqni buzuvchilar esa o'zlarining nutqiga xos bo'lgan belgilarni o'zgartiradilar va buning uchun odatiy belgilar o'rniga (yoki ulardan to'liq voz kechadilar), odatiy sharoitlarda kam qo'llaydigan belgilardan foydalanadilar.

Og'zaki nutqni niqoblash usullaridan eng ko'p uchraydiganlariga to'xtalib o'tamiz.

Nutq savodxonligini kamaytirish, odatda so'zlarni, xuddi grammatik ko'nikmalari rivojlanmagan odamlar kabi talaffuz qilishda namoyon bo'ladi. Bu holda ko'pincha, quyidagi "hatolar" uchraydi: so'zlarni yumshatish ("buxgalter" so'zi o'rniga "bug'altir"), so'zlarni tushirib qoldirish, tovushlarni joyini almashtirish va boshqa tovushga ("buxgalter" o'rniga "bulgaxter"). Ba'zida odatiy vaziyatlarda hatoga yo'l qo'yadigan shaxslar, bu hatolarini nutq belgilarini buzishda qo'llayotgan yangi hatolari bilan birga takrorlaydilar.

Nutqni sintaksik buzish xuddi talaffuzni ataylabdan buzish kabi juda ko'p uchraydi hamda gaplar ichidagi so'zlar tarkibini buzish bilan ifodalanadi.

Fikrlarni bayon qilish stilini atayin soddalashtirish – stereotip iboralar, har bir gapning boshida, bu gapdan oldingi gapning oxirgi so'zini takrorlash, gaplar boshlanishini bir xilligi va boshqa stilistik hatolar xos bo'lgan oddiy va mayishiy stildan foydalanishdan iborat.

Murakkab til vositalaridan voz kechish va eng oddiy til vositalaridan foydalanish. Ilmiy yoki rasmiy stilga o'rganib qolgan shaxslar, ba'zida oddiy stilga xos bo'lgan vositalardan foydalanadilar: murakkab gaplar (ayniqsa bog'langan qo'shma gap) o'rniga sodda gaplar ishlatiladi, gaplarning o'rtacha uzunligi qisqartiriladi, matnga "oddiy xalq" tusini beradigan maqollar, naqlar qo'shiladi.

Leksik buzilishlar o'z so'z boyligini sun'iy kamaytirish (bir xil so'zlarni ko'p marta takrorlash, sinonim va turlicha ta'riflarni ishlatmaslik), turli til leksikalarini aralashtirish, shevaga xos so'zlar, jargon so'z va iboralarni ishlatish bilan hosil qilinadi.

Shunday qilib, o'zaro o'xshashlik va farqlarni baholashda, nutqni niqoblashda, nutqning stilistik va leksik belgilari o'zgartirilishini inobatga olish zarur. Bunda nutqdagi til normasidan chetlanish belgilari o'zining barqarorligini oddiy nutqda ham, nutqni ataylabdan o'zgartirishda ham saqlab qoladi.

Belgilarni baholashda, bu belgilar qanday turdagi ONda namoyon bo'lishini hisobga olish talab etiladi.

Masalan, *dialog* — bu qoʻllanib turiladigan nutq, uning uchun soʻzlashuvchilarning ruhiy-ekspressiv aloqasi (kontakti) xosdir; uni vaziyatga oidlik ham ajratib turadi.

Suhbat yoki mavzuiy dialog, muloqot vaziyatiga bogʻliq tarzda rivojlanadigan monologga yaqin boʻladi, ammo bunda muloqot xususiyati biroz boshqacha: *monolog* — bu bogʻlangan nutq, matn mazmun (kontekst)li, mantiqiy ketma-ketlikka ega, bu esa ibora va gaplarni tuzishni osonlashtiradi, binobarin nutqni niqoblash va hatto imitatsiya qilishni ham osonlashtiradi.

Maʼlumki, nutqda soʻzlovchining tilni bilish darajasi, atrof-muhit kontekstining oʻziga xos xususiyatlari ongli ravishda (shuning uchun barqaror) namoyon boʻladi, bu esa fikrlarni bayon qilishning mazmuni va tuzilishida aks etadi.

Soʻzlovchining ONdagi belgilarda mavjud xususiyatlari haqidagi axborotlarni *mazmuniy* va *shaxsga oid* axborot kabi turlarga boʻlish mumkin.

Mazmuniy axborot — birorta xabarda mavjud boʻlgan maʼlumotlarning yigʻindisidir. Bunday axborot soʻzlovchining umumiy bilimi va dunyoqarashlari, unda muayyan, jumladan kasbiy bilimlar mavjudligi, mahalliy ahamiyatga ega boʻlgan va tor doiradagi shaxslarga maʼlum boʻlgan hodisalarni bilishi haqida guvohlik bergani bois, ekspertlar undan foydalanadilar.

*Shaxsga oid axborot*ning ahamiyati biroz yuqori boʻladi. Bunday axborot ogʻzaki fikr bildirishni oʻziga xos stilda, leksikada, grammatik tuzilishda, kompozitsiyadagi mazmuni va tuzilishini ifoda etadi. Shaxsga oid axborot mazmuniy axborotga nisbatan toʻlaroq hajmda tadqdim etilgan va ONni xolisona ifodalaydi.

Soʻzlovchi belgilarining variatsiyaviyligiga taʼsir qiluvchi shart-sharoitlar haqidagi axborotlar ham juda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlarning lingvistik bosqichidan keyingi muhim bosqichi instrumental tadqiqotlar hisoblanadi. Mazkur bosqich ham yuqorida qayd qilingan belgilarga tayangan holda maxsus asbob-uskuna va dasturiy taʼminotlar yordamida olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сўзловчининг шахсини овози ва нутқи бўйича аниқлаш. Тошкент-2018 й.
2. Суд-фонографик экспертизаларининг объектлари-аналогли ва рақамли ташувчилар, товуш ёзиш воситалари, шунингдек суҳбат фонограммаларини ва таққослов намуналарини тадқиқотларининг айрим хусусиятлари. Тошкент-2018 й.
3. Свирава Т.Н., Сипаров И.С., Шавыкина С.Б. Оценка пригодности речевого материала для проведения идентификационного исследования по голосу и звучащей речи. Теория и практика судебной экспертизы. 2025;20(1):23-37. <https://doi.org/10.30764/1819-2785-2025-1-23-37>
4. Технология идентификации личности на основе формантных структур при выполнении фоноскопических экспертиз речи на узбекском языке. Ташкент – 2006г.;
5. Центр речевых технологий. Сборник научно-методических рекомендаций по выполнению криминалистических экспертиз звукозаписей речи. Санкт-Петербург. 2021 г.;
6. Криминалистическая идентификация личности по голосу и звучащий речи. А.И.Каганов 2009 г.;
7. Фундаментальные исследования речи и прикладные задачи речевых технологий. В.И.Сорокин 2008 г.;
8. Е.И.Галяшина. Судебная фоноскопическая экспертиза. М.2001 г.;
9. Е.И.Галяшина. Основы судебного речеведения. М. 2003 г.;
10. Каменюкин А.И. Современные аспекты идентификации личности. 2016 г.;
11. Моржаков В. Современные биометрические методы идентификации 2015 г.;
12. Савельева М.В., Смушкин А.Б. Криминалистика. Учебник. М.; Издательство Издательский дом "Дашков и К", 2009 г.;
13. Филиппов, А.Г. Криминалистика: учебник, Высшее образование, 2008 г.;
14. Криминалистика: Учебник / Отв. ред. Н.П. Яблоков. - 3-е изд., перераб. и доп.- М.: Юрист, 2005 г.;